

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

Epik syujetda motivlararo mushtaraklik va o‘ziga xoslik

MAMUN universiteti NTM Filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedrasи o‘qituvchisi

Arabova Gulsanam Saburovna

Annotatsiya: Ushbu tezisda sujet va uning turlari hamda badiiy asarda tasvirlangan voqealar tizimining o‘zaro munosabatiga ko‘ra turlari, motivlararo mushtaraklik haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sujet, motiv, epik, dramatic va liroepik turdagи badiiy asarlar, sujet turlari.

Sujet (fransuzcha: sujet, kelib chiqishi lotincha: subiectum[1] — predmet, buyum, narsa) — badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi. Barcha epik, dramatik va liroepik turdagи badiiy asarlarda sujet mavjud bo‘ladi. Har bir adabiy turda sujet o‘ziga xos harakterga ega. Ko‘pgina lirik asarlarda ko‘zga yaqqol tashlanib turadigan sujet tizimi yo‘q. Ulardagi his-tuyg‘u, o‘y-kechinmalar rivoji qaysidir ma’noda lirik asar Syujetini tashkil etadi. Ayrim adabiyotshunoslar Syujetlilik umuman lirik turga xos xususiyat emas, deb hisoblaydi. Chunki, lirik asarda voqealar tizimi bo‘lmasligi ham mumkin. Ayni chog‘da, faqat voqealar tizimidan ham iborat emas.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar tizimining o‘zaro munosabatiga ko‘ra asosan xronikal (voqeaband) va konsentrik (voqeaband bo‘lmagan) turlarga bo‘linadi. Xronikal sujetda voqealar orasidagi vaqt munosabati yetakchilik qiladi, (mas, D. D. Defont „Robinzon Kruzo“, Servantesning „Don Kixot“, Oybekning „Navoiy“, P. Qodirovning „Yulduzli tunlar“ asarlari). Konsentrik sujetda esa asarda tasvirlangan voqealar orasidagi sabab — natija muhim ahamiyat kasb etadi (mas, Pushkinning „Yevgeniy Onegin“, O. Yoqubovning „Muqaddas“, „Ulug‘bek xazinasi“ asarlari). Ammo badiiy asarlarda yuqoridagi sujetlarning har ikki turi uyg‘unligidan tarkib topgan shakli ko‘proq uchraydi (mas, Abdulla Qodiriyning „O‘tgan kunlar“, Cho‘lponning „Kecha va kunduz“ asarlari).

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

Badiiy asarda tasvirlanayotgan voqelik va asarda ishtirok etadigan qahramonlar masalasiga bevosita bog'liq. Chunki sujet asosidagi voqelikda qahramonlar harakat qiladi va eng muximi, haqiqiy badiiy asarlarda avvalo qahramonlar o'z dardidunyosi bilan namoyon bo'ladi. F. M. Dostoyevskiyning „Jinoyat va jazo“ romanida Raskolnikov, A. Qahhorning „Sarob“ romanida Saidiy, Tog'ay Murodning „Otamdan qolgan dalalar“ romanida Dehqonqul obrazlari atrofida voqealar san'atkorona tarzda uyushtirilgan.

Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim singari bir qator unsurlardan tarkib topadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning „Mehrobdan chayon“ romanidagi Xudoyorxon bilan Anvarning to'qnashuv epizodi asarning kulminatsion nuqtasi sanaladi. So'ngra voqealar yechimi keladi. Badiiy asarda sujet unsurlari ba'zan turlicha hajm va turlicha tartibda kelishi mumkin. Shuningdek, ayrim asarlarda ekspozitsiya yoki yechim singari sujet unsurlari bo'lmasligi ham mumkin. Bu aslo kamchilik emas, aksincha, o'quvchini badiiy tafakkurga chorlaydi, tasavvurini kengaytiradi. Ba'zi adabiyotshunoslar prolog (muqaddima) va epilog (xotima)larni ham sujet elementi sifatida ko'rsatadilar (A Qodiriyl romanlarida bu unsurlar mavjud). Sujet kompozitsiya, konflikt, fabula kabi adabiy tushunchalar bilan ham mustahkam bog'langan.

Motiv folklor asarini (matn, syujet, boshqa har qanday yakunlangan haqiqat) badiiy tashkil etishning asosiy kategoriyalari (toifalari)ga, shuningdek, kengroq ma'noda, umuman, madaniy hodisa sifatida folkloriga tegishlidir. Folklor olami motivlar orqali ifoda etiladigan cheksiz, (ammo oxir-oqibat , tizimlashtirish va hisobga olish uchun qulay bo'lgan) motivlar to'plamidan iborat. Motivlar folklor haqiqati va folklor tilining ajralmasligini , ya'ni mazmun va ifoda uyg'unligini o'zida mujassam etadi. Motivni folklor syujetining muhim elementi sifatida ajratib ko'rsatgan va motiv nazariyasining asoslarini yaratib bergan A.N.Vaselovskiy davridan buyon folklorshunoslik fani motiv bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirdi. Bu tadqiqotlarning barchasida motivning atama sifatida mazmun chegarasi

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

va ta'rif doirasi (ayniqsa, fundamental va sof nazariy tadqiqotlarda) ziddiyatli bo'lib qolmoqda.

Epik turning o'ziga xos xususiyatlari haqida gap borganda, avvalo, uning voqeabandlik xususiyati tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda bo'layotgan voqealari tasvirlanadi, oddiygina so'z vositasida o'quvchi ko'z o'ngida jonlanadigan to'laqonli badiiy voqelik yaratiladi. O'quvchi ko'z o'ngida reallikka o'xshash, o'zining tashqi ko'rinishi va shakli bilan jonlana olgani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni „plastik“ tasvirlangan deb yuritiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda „noplastik“ elementlar ham uchraydi. Ushbu elementlar muallif obrazini umumiy tasavvur qilishda qo'l keladi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning o'y-fikrlari, mushohadalari, ichki kechinmalari, tasviriy predmetga hissiy munosabatlari tushuniladi. Aytiganidek, noplastik elementlar plastik elementlardan farq qilib, o'quvchi ko'z o'ngida jonlanmaydi. Epik turga mansub asarlar asosan nasriy yo'lda yoziladi lekin nasriy yo'lda yozilgan lirik asarlardan tubdan farq qiladi. Demak, asarning nasriy yo'lda yozilganligi uning epik turga kirishiga asos bo'la olmaydi.

Epik asarda voqealari hikoya qilib berayotgan shaxs „Roviy“ yoki „Hikoyachi“ deb yuritiladi. Epik asarda voqealar birinchi shaxs tilidan yoki uchinchi shaxs (muallif) tilidan ham aytishi mumkin. Masalan, X.To'xtaboyevning „Sariq devni minib“, E.A'zamovning „Otoyining tug'ilgan yili“, G'afur G'ulomning „Shum bola“ yoki „Yodgor“ kabi asarlarida rivoya birinchi shaxs ya'ni voqealarda bevosita ishtirok etayotgan personaj tilidan hikoya qilinadi.

M.Gorpkiy syujetni «aloqalar, qarama-qarshiliklar, simpatiyalar va antipatiyalar va umuman kishilarning o'zaro munosabati u yoki bu xarakterning o'sishi va tashkil topishi tarixi», - deb ataydi. Syujetga xarakterlarning kechinmalari tarixi ham kiradi. Arastu fabulani go`-zallikning hajmi va tartibi deydi. Fabula voqealardagi keskin buriplashlardir, voqeanning bir maromdan boshqa maromga birdan o'tishidir deydi. Fabulaga tugun bilan echimni kiritadi. Demak, syujet asardagi voqealar oqimidir, ularning bir-biriga bog`lanishidir, undagi aloqalar, qarama-qarshiliklar, xarakterlarning

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

rivojlanishi tarixi, ana shu tarixning bosqichlaridir, asardagi tuyg`u va kechinmalarning mantiqiyligidir.

Badiiy asarlarda voqealar borishida, xarakterlar taqdirida birdan kutilmagan keskin o`zgarishlar bo`ladi. Bu esa asarda yangi-yangi tugunlarni keltirib chiqaradi, kitobxonda qiziqishni kuchaytiradi. Ana shu tugun va echimlarda xarakterlar mantiqi, voqealarning rivojlanishi tarixi namoyon bo`ladi. Tugun va echimlar o`z o`zidan xarakterlar rivojlanishini ko`rsatmaydi. Xarakterlar va voqealarning rivojlanishi tarixi ana shu momentlar vositasida ochiladi.

Syujetni qarama-qarshiliklar, xarakterlarning rivojlanishi tarixi, asardagi voqealar oqimi deb ta'riflashda asosan yirik nasriy va dramatik asarlarga xos xususiyatlar ko`zda tutilgan. Vaholanki, lirk asarlarda xarakter bo`lmaydi. Bo`lganda ham ularning rivojla-nishi tarixi ko`rsatilmaydi, kichik janrlarda voqealar berilmasligi, ularning oqimi ko`rsatilmaydi mumkin. Shuning uchun ham syujet faqat asardagi voqealar oqimi, xarakterlarning rivojlanish tarixigina emas, asardagi tuyg`u Syujet elementlari:- ekspozitsiya (bayon qilish, izohlamoq) - syujetda tugundan oldin keladigan vaziyatdir. Ekspozitsiyada qahramonlar, ularning o`zaro munosabati, asosiy hodisalar to`g`risida ma'lumot, axborot berilib, ular bilan kitobxonni tanishtirishdir. Ekspozitsiyaning o`zi hali asosiy voqeani, asar konfliktini keltirib chiqarmaydi. Shunday bo`lsa ham u asardagi asosiy voqealarning xarakter va yo`nalishlarini belgilaydi. Ekspozitsiyaning qaerda kelishi yozuvchi niyatiga bog`liq. Shunga ko`ra ekspozitsiya turlicha bo`ladi: to`g`ri, kechiktirilgan, teskari va sochma. To`g`ri ekspozitsiya tugundan oldin keladi. Kechiktirilgan ekspozitsiya tugundan keyin voqealarning ichida yoki undan oldin keladi. Teskari ekspozitsiya esa asar oxirida keladi (V.Kaverin «Ikki kapitan»). Ekspozitsiya prologga yaqin turadi. Biroq prologdan farqli ravishda asarning asosiy voqeasi bilan ichki birlikka ega bo`ladi.

- tugun - qahramonlar o`rtasidagi to`qnashuvning boshlanishi, asarda qo`yilgan jumboqdir. Asar voqealari ana shu jumboqning echilishi bilan tugaydi.

- voqealar rivoji - personajlar o`rtasidagi munosabatlardagi o`zgarishlar. Voqealar rivoji ko`p qatlamlili, ko`p bosqichli bo`lishi mumkin. Yangi tugunchalar, bir

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

tomondan, asosiy tu-gunni yanada murakkablashtirsa, ikkinchi tomondan, asosiy tugun echi-lishining bosqichlari rolini o`ynaydi. Bunda qaxramonning oldingi tarixi, keyingi tarixi, tupik, tormozlanish, sir saqlash, topishish, kutilmagan o`zgarish kabi lahzalar ham bo`lishi mumkin.

- kulpminatsiya - voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, konfliktning echilishiga olib keladigan hayot va munosabatlar holatidir.

- yechim - hayotiy masalaning hal etilishi natijasidir. echim qahramonlarga munosabatni oydinlashtiradi, g`oyaviy va emotsiyal munosabatlarni o`tkirlashtiradi echimda konflikt va voqealardan kelib chiqadigan g`oya ifodalanadi.

- postpozitsiya (tugallanma) - dramatik asarlarda esa final deyiladi. Bunda kurash natijasidagi kuchlarning joylashuvi ko`rsatiladi. Ekspozitsiya bilan postpozitsiya mustaqil g`oyaviy-badiiy darajaga ko`tarilsa, u prolog va epilog bo`ladi. Umuman, tugallanma personajlarning echimdan keyingi holatidir.

- prolog - ekspozitsiya rolini o`ynaydi. Shu bilan birga, prologda tugun beriladi. Bu tugun kuchliroq bo`ladi.

- epilog - yechimdan kengroq bo`lib, unda echimdan so`nggi qahra-monlar taqdiri ko`rsatiladi. Epilog g`oyani yana ham chuqurlashtiradi. Ba`zan syujetni ham Shaklga kiritishShadi. Biroq syujetni butun-lay Shaklga kiritib bo`lmaydi. Asarning asosiy konflikti syujetda ochiladi. Demak, syujet faqat Shakl emas, mazmunga ham aloqadordir. Syujetda Shakl bilan mazmun birlikda namoyon bo`ladi. Hayot kolliziya-larini bevosita ochadigan san`at turlaridagina syujet bo`ladi. Me'morchilik, xoreografiya va musiqaning ayrim turlarida syujet bo`lmaydi. Syujetda odamlarning o`zaro munosabatlari, simpatiya va antipatiyalari, ziddiyatlar aks etadi. Voqealarni dinamik ilg`ay olishda syujet qurish mahorati ko`rinadi. Ayniqsa, dramada syujet qu-rish masalasi muhimdir. Dramada kulpminatsiya butun voqealar taraq-qiyoti jarayonida tayyorlanishi kerak. Syujet qiziqarli bo`lishi, quruq bo`lmasligi kerak. Syujet keskinligini qiziqarlilik bilan almashti-rish ayrim asarlarni syujetdan voz kechishga olib keladi. Zamonaviy syujet katta ahamiyatga ega bo`ladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

Mavjud ilmiy va o`quv adabiyotlarida syujetning ikki turi haqida gapiriladi. Aslida esa, syujetning quyidagi to`rt turi bor:

- xronikali; kechinmalar oqimi, ularning rivojlanish mantiqi hamdir.
- retrospektiv;
- kontsentrik;
- assotsiativ.

Xronikali syujetda voqealar bir boshdan boshlanib, birin-ketin hikoya qilinadi. Xronikli syujet ishonarli bo`ladi. Biroq syujetning bu turi doim ham qulay vosita bo`la olmaydi, Chunki xronikaning o`zi syujet bo`la olmaydi. Xronikalilik ko`pincha naturalistik bayonchilikka olib keladi, yorqin obrazlar yaratishga imkon bermaydi. Masalan, Navoiynin «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» dostonlarida, Ayniying «Esdaliklar»ida, P.Tursunning «O`qituvchi»sida voqealar qahramoning tug`ilishidan, to ma'lum yoshigacha beriladi. Biroq bu asarlarning kompozitsion qurilishi, voqealarni tanlash, saralash, umumlashtirish va ularni badiiy ifodalash mahorati, ularni joylash-tirish, ya`ni kompozitsiya shunga olib keladiki, bu asarlarni o`qigan kishi unda ortiqcha narsa yo`q, barcha voqealar badiiy-estetik va ijtimoiy qimmatga egadir, degan xulosa chiqadi. Ularda e'tiborga loyiq va qiziqarli syujet hosil qilinadi.

Retrospektiv (orqaga qaytuvchi) syujetda voqealar bir boshdan birin-ketin hikoya qilinmay, balki voqeanning ma'lum joyida to`xtatib qo`yilib, uning o`tmishiga, oldingi voqealarga murojaat qilinadi. Ba`zi asarlar umuman ana shunday orqaga qaytishga asoslansa, ayrim masalalarda vaqtı-vaqtı bilan voqealar hamda qahramonlarning o`tmi-shiga qaytib turiladi. Masalan, M.SHoloxovning «Inson taqdiri» qissasi butunicha orqaga qaytishga asoslangan. A.Qodiriyning «Meh-robdan chayon» romanidagi Solih Mahdumning o`tmishi tasviri, H.Olimjonning «Zaynab va Omon»ida Zaynab bilan Omonning o`tmishi, O`.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida komissar va T.Malikning «Shaytanat» qissasida bosh qahramoni Asadbekning o`tmish hayoti tasviri kabilar vaqtı-vaqtı bilan orqaga qaytish namunasi bo`ladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

Kontsentrik syujet tadqiqot syujet ham deyiladi. Unda voqeal hikoya qilinmaydi, o`tmishga ham murojaat qilinmaydi. Kontsentrik syujetda biror hodisaning sabablari tahlil qilish jarayonida sodir bo`lgan voqealar kitobxon ko`z o`ngida jonlanadi. Masalan, O`. Umarbekovning «Yoz yomg`iri» qissasi boshida Chorsudan Mo`nisning jasadi to-piladi. Uning qanday o`ldirilganligini yozuvchi ham, kitobxon ham, asar qahramonlari ham hikoya qilib bermaydilar. Jinoyat sabablarini tekshirish jarayonida kitobxon ko`z o`ngida sodir bo`lgan voqealar jonlanadi. Sofoklning «SHoh Edip», O.Abdullinning «O`n uchinchi rais» dramalari, H.G`ulomning «Mash`al», O.YOqubovning «Larza», O`.Umarbe-kovning «Fotima va Zuhra», O`.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», T.Malikning «Shaytanat» kabi asarlari ham syujetning ana shu turiga asoslanib qurilgan. Chunki kontsentrik syujet ko`pincha detektiv asarlar uchun xos bo`ladi.

Assotsiativ syujet ilgarilari asosan lirik asarlar uchun xarak-terli bo`lib, lirika tashqi hodisalarga shoirning munosabati yoki tashqi hodisalar ta`sirida shoir Shaxsida tug`ilgan tuyg`u va kechinma-larga asoslanardi. Hozirda syujet qurishning assotsiativ usuli yirik nasriy va dramatik asarlar uchun ham xos bo`lib qolmoqda. Bunday asarlarda hikoya qilinmaydi, balki qahramonning xotiralari, o`y-xayol-lari, tasavvurlari oqimi beriladi. Masalan, A.Muxtorning «Davr me-ning taqdirimda», «Chinor», S.Anorboevning «Umr», Ch.Aytmatovning «Alvido, Gulsari», «Asrga tatigulik kun», O`.Umarbekovning «Shoshma quyosh», O.Yoqubovning «Ko`hna dunyo» asarlari assotsiativ syujet asosida qurilgan. Lirk poemalar syujeti ham assotsiativ usulga asoslanadi.

Asarda har bir personaj o`z xarakteri va vazifasiga ega bo`ladi. Ularning barchasi asosiy narsaga, ya`ni voqealar rivojiga birlashti-riladi va shu bilan asar syujetini ochishga xizmat qiladi. Syujet bilan kompozitsiya ajralmasdir. Syujet bo`shligi kompozitsyaning bo`shligini keltirib chiqaradi. Aniq shakllantirilmagan bo`sh kompozitsiya esa syujetni halok qiladi. Biroq yaxshi ishlangan kompozitsyaning o`zi ham muvaffaqiyat keltirmaydi. Kompozitsyaning qimmati g`oyaning qimmati bilan belgilanadi. Yaxshi kompozitsiyada ifodalangan g`oya

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

syujetni ham yaxshilaydi. Demak, syujet asar mazmunini ochish Shaklidir. Fabula va syujet. “Fabula” (lot. fabula-masal,matal-hikoya) - badiiy syujet organizmning skeleti, asosi, syujet uchun material vazifasini o‘taydigan voqeahodisalar doirasi, syujetning mantiqiy hikoya qilib bercha bo‘ladigan o‘zagi. adabiyotshunosligimizda “syujet” va “fabula” atamalari ishlatiladi: “syujet” atamasi adabiyotshunoslikda to‘la qaror topgan, ammo “fabula” atamasini ishlatishda mutaxassislar bir xillikka erishganlaricha yo‘q. Chunonchi, ayrim nazariy adabiyotlarda “syujet bilan fabula bir ma’noda qo‘llaniladi” degan qarash mavjud. Adabiyotshunos A.P.Chudakov fikricha, fabula “voqealar markazi”. S.Narovchatovning aytishicha, “Yozuvchi syujet doirasida fabulani qayta ishlaydi. U voqealarning tartibini o‘zgartirishi va buzishi ham mumkin”. Taniqli adabiyotshunos olim V.V.Kojinov “Syujet, fabula, kompozitsiya” nomli maqolasida fabula masalasiga ancha aniqlik kiritgan: “Biz syujet deganda asardagi bir butun harakatni, tasvir etilgan xatti-harakatlar zanjirini; fabula deganda esa qayta hikoya qilib berish mumkin bo‘lgan voqealar tartibini tushunamiz”. Bas shunday ekan, “fabula” atamasini saqlab qolish va ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Syujet ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va uyechim kabi elementlardan tashkil topadi. Bularning hammasi badiiy asar syujetining tarkibiy qismlari bo‘lib, asar kompozitsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Kompozitsiya asar mazmunini eng mukammal tusda reallashtiruvchi shakliy kategoriya bo‘lib, ijodiy metod, adabiy yo‘nalish, oqim va ularga xos ijod prinsiplari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi adabiyotga nazar tashlasak, kompozitsiya tushunchasi bir qancha usul va vositalar hisobiga boyidi. Masalan, hozirgi adabiy asarlar qurilishida qo‘llaniladigan avtor xarakteristikasi, ichki va tashqi monolog, dialog, xotira, lirik chekinish, ruhiy iztirob, tush ko‘rish, o‘z-o‘zini baholash kabi usullar shular jumlasidandir.

Obraz asarda tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra, adabiyotda personaj, bosh obraz, ikkinchi darajali obraz, xarakter, tip kabi terminlar bilan ifodalanadi. Chunonchi, personaj badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar jamini anglatadi. Agar personaj asar

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-1

voqealari markazida turib, syujet voqealarini harakatga keltirsa, asar konfliktining hal etilishida uyetakchi rol o‘ynasa, yozuvchining g‘oyasini ifodalasa, u asarning bosh obrazi sanaladi. Personaj asar markazida turmasa ham, biror jihatni bilan yozuvchi g‘oyasini ifodalashga, uni to‘ldirishga xizmat qilsa, u ikkinchi darajali obraz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 И.Султон. Адабиёт назарияси.- Т.: Ўқитувчи, 1986.- Б.172-173
- 2 А.Қаххор. Асарлар. 5 жилдлик. 5-жилд.- Т., 1989.- Б.66
- 3 А.Қаххор. Асарлар. 5 жилдлик. 5-жилд.- Т., 1989.- Б.66
- 4 Куронов Д., Раҳмонов Б. Фарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари.- Т.: Фан, 2007.- Б.???-???
- 5 Қаранг: Д.Куронов. Душманни танитган дўст / Ўзбекистон адабиёти ва санъати.- 2004.
- 6 Федотов О.И. Основы теории литературы. В 2 ч. Ч.1.- М.: Владос, 2003.- С.253
- 7 Николина Н.А. Филологический анализ текста.- М.: ACADEMIA, 2003. - С.45
- 8 Фитрат. Адабиёт қоидалари// Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд.- Т.: Маънавият, 2006.- Б.16
- 9 Solihov T. Adabiyot – insonni kashf qilish. – Т.: Yangi asr avlodı, 2016. – 135 b.